

INKLUZIV TA'LIMDA PEDAGOGIK MULOQOT USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada inkluziv ta'limda pedagogik muloqot usullaridan samarali foydalanishning ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, inkluziv ta'lim davlat siyosatining bugungi ta'lim jarayonining zamonaviy pedagogik muloqot usullaridan to'g'ri foydalanish jihatlari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Inkluziv ta'lim, inkluziv ta'lim, shaxs, ijtimoiylashuv, individ, muloqot, pedagogik muloqot, zamonaviy muloqot usullari, muloqot etikasi, ta'lim oluvchilar, ta'lim-tarbiya, kommunikativ qobiliyat.

Аннотация: В статье широко освещена важность эффективного использования методов педагогической коммуникации в инклюзивном образовании, а также включены аспекты правильного использования современных методов педагогической коммуникации в современном образовательном процессе государственной политики инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, инклюзивное образование, личность, социализация, личность, общение, педагогическое общение, современные методы общения, этика общения, обучающиеся, образование и обучение, коммуникативные способности.

Abstract: The importance of the effective use of pedagogical communication methods in inclusive education is widely covered in the article, and the aspects of the correct use of modern pedagogical communication methods in today's educational process of the state policy of inclusive education are included.

Key words: Inclusive education, inclusive education, person, socialization, individual, communication, pedagogical communication, modern communication methods, communication ethics, learners, education and training, communicative ability.

«Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas.

Unga hurmat bilan munosabatda bo'lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim».

Mariya Sibulskaya

Bugungi kunda inson qadrini ulug'lash, uning manfaatlarini himoya qilish va jamiyatimizdagi barcha insonlar teng huquqli ekanliklari nihoyatda ahamiyat kasb etmoqda. BMT ning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalari ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, alohida yordamga

muxtoj bolalarni jamiyatda sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi uchun imkoniyatlarning yaratib berilishi fikrimiz tasdiqi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "TA'LIM TO'G'RISIDA"gi QONUNI 20-moddasida Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir¹

Inkluziv ta'lim

bu barcha o'quvchilar, shu jumladan, turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish va birgalikda ta'lim olishni ta'minlovchi ta'lim tizimidir. Bu ta'lim modeli jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki hissiy cheklovlar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy holatga bog'liq bo'lmagan holda barcha bolalarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi va hurmat qiladi

Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga

yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inkluziv ta'limning asosiy tamoyillari

- ❖ Teng huquqlilik – har bir bolaning ta'lim olish huquqiga ega ekanligini ta'minlash.
- ❖ Individual yondashuv – o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish.
- ❖ Mavjud muhitga moslashtirish – o'quv muassasalarini o'quvchilar uchun qulay va moslashtirilgan qilish.

¹ Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47

- ❖ Ijtimoiy integratsiya – o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va jamoaga qo‘shilishiga ko‘maklashish.
- ❖ Qo‘llab-quvvatlash tizimi – o‘qituvchilar, ota-onalar va mutaxassislar tomonidan yordam ko‘rsatish.

Inkluziv ta'limning maqsadi barcha bolalarga teng sharoitda ta'lim olish imkoniyatini yaratish. Turli qobiliyatlar va ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar orasida ijtimoiy muloqotni rivojlantirish. Nogironligi yoki boshqa xususiyatlari bo‘lgan bolalarning jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Inkluziv ta'limning afzalliklari

- ❖ Ijtimoiy tenglikni ta'minlash – turli ehtiyojlarga ega bolalar bir xil sharoitda ta'lim oladi.
- ❖ Tolerantlikni rivojlantirish – o‘quvchilar bir-birlarini hurmat qilishni va tushunishni o‘rganadilar.
- ❖ Shaxsiy rivojlanish – bolalar o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.
- ❖ Oilaviy qo‘llab-quvvatlash – ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

Inkluziv ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri moslashtirilgan muhit yaratish – sinfxonalar, o‘quv materiallari va infratuzilma bolalarning ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Alohida yordamga muxtoj bolalar bilan ishlashda ularning jismoniy salomatligini inobatga olgan holda qulay pedagogic muhitni yaratish lozim. Qolaversa malakali pedagoglar tayyorlash – o‘qituvchilarni inkluziv yondashuvga o‘rgatish va maxsus metodikalarga ega bo‘lish. Qo‘llab-quvvatlash xizmatlari – defektologlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish. Ota-onalar bilan ishlash – ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish va ma'lumot bilan ta'minlash.

O‘z o‘rnida inkluziv ta'lim kimlarga mo‘ljallangan degan savolga javoban

- nogironligi bo‘lgan bolalar (jismoniy, aqliy yoki hissiy).
- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar.
- cheklangan imkoniyatlarga ega boshqa o‘quvchilar.

Inkluziv ta'limning muhimligi bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, kamsitishlarning oldini oladi va hamma uchun bir xil sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Bu nafaqat o‘quvchilar uchun, balki jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega.

Inkluziv ta'limda pedagogik muloqot o‘quvchilarni tenglashtirish, individual yondashuvni ta'minlash va ta'lim jarayonida ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish uchun muhimdir. Quyida inkluziv ta'limda pedagogik muloqotdan foydalanishning asosiy usullari keltirilgan:

Inkluziv ta'lim jarayonida pedagogik muloqotni amalga oshirish har bir o‘quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini tushunish uchun muloqotni tashkil qilish kerak.

Diagnostik suhbat va kuzatish metodlari orqali o‘quvchilar bilan alohida ishlash pedagogik muloqotni samarali bo‘lishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Inkluziv ta'limda individ va guruh muloqotini uyg‘unlashtirish guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bunday jarayonda har bir o‘quvchi bilan individual suhbat o‘tkazib, shaxsiy rivojlanish masalalarini muhokama qilish maqsadga muvofiq.

Inkluziv ta'lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi bo‘lib kelgan. Hali juda ko‘p bolalar ota-onalarining bola uchun qulay sharoiti mavjud, deb hisoblagan maxsus internatlarda o‘qitishi tarafdori bo‘lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o‘zlarini inkluziv ta'lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta’riflab, alohida ta’limning bekor qilinishini

talab qilmoqdalar. Chunki “qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo‘lgan sharoitdan chiqqach, tashqariga moslashish, o‘z o‘rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta‘lim olishdagi teng huquqliligini ta‘minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta‘lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarning hissiy holatini tushunish va qo‘llab-quvvatlash orqali pedagogdan empatiya va ijobiy aloqa munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish talab qilinadi. Tanbeh o‘rniga ijobiy mulohaza va tavsiyalar berish orqali ishonchni mustahkamlash mumkin. Bu borada pedagoglar qiziqarli va interaktiv muloqot usullaridan foydalanishlari, o‘quvchilarga savollar berib, ular bilan faol dialog o‘tkazishlar, rolli o‘yinlar, qiziqarli topshiriqlar va munozaralar tashkil qilish orqali bolalar jamoasidagi ijtimoiy muhit to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi.

O‘quvchilarni bir-birlariga yordam berishga o‘rgatish va jamoaviy ish orqali muloqotni mustahkamlash usullari orqali pedagogik muloqot o‘quvchilarning o‘zlarini qadrligi va qulay his qilishlariga yordam beradi hamda ta‘lim samaradorligini oshiradi.

Abu Nasr Farobiy insonparvarlik, aniq maqsad sari intilish baxt-saodatga eltuvchi ekanligini ta‘kidlaydi: “Inson baxt-saodat nimadalgini tushungan bo‘lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g‘oya va hoxishiga aylantirmagan bo‘lsa, unga nisbatan ozgina bo‘lsa-da, shavq-zavq sezmasa, istak va muloxazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo‘rindir... Mustaqillikning ildizi insonparvarlik, ong va faoliyat birligi, ruhiyat, nazariya va amaliyot bog‘liqligi, tarbiya (uning barcha yo‘nalishlari: aqliy, ahloqiy, jismoniy, xuquqiy, iqtisodiy, jinsiy, gigienik, estetik, mehnat, ijtimoiy ...) ning mavjud bo‘lish tarixi va amaliyotiga borib taqaladi.

Demak, bolalarda mustaqillik u yoki bu (masalan, aqliy, ahloqiy va boshqa) yo‘nalishdagi ta‘lim-tarbiya asosida shakllantiriladi, rivojlantiriladi degan yondashuv bir tomonlama hisoblanadi. Ya‘ni mustaqillik bolaning borliq, makondagi mavjudligining, zamonning har soniyasida u ishtirok etgan, bevosita va bilvosita guvohi bo‘lgan mazmunning ta‘sirida paydo bo‘ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bu fikr bola shaxsida mustaqillik sifatini shakllantirishning nazariy asosi sifatida pedagogika va psixologiyaning va albatta, yo‘nalishlar bo‘yicha metodika fanlari bo‘yicha olib borilgan, amaliyotga o‘z samarali ta‘sirini bergan, umumilliy maqsadga erishish yo‘lida amalga oshirilgan barcha tadqiqotlarni olish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA “Inklyuziv ta‘lim: nazariya va metodika” - Chirchiq 2022 yil
2. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y.
3. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo‘llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
4. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o‘quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
5. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innovacje.*, 28, 6-11.
6. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 116-122.

7. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
8. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
9. Ravshanovna, X. S. (2023). O 'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o 'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.
10. Ravshanovna, X. S. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILAR VA O 'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
11. Ravshnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.
12. Ravshanovna, X. S. (2024). The teacher's views on the technologies for the development of pedagogical communication methods. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 368-376.
13. Халилова, Ш. Р. (2024). Технологии разработки методов педагогического общения в образовательном процессе сделанный увеличивать технологии. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 261-268.
14. Ravshanovna, X. S. (2024). PEDAGOGLAR TOMONIDAN DARSDA VA DARSDAN TASHQARI MUHITDA QO'LLANADIGAN PEDAGOGIK MULOQOTNING USLUBLARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 126-134.
15. Ravshanovna, X. S. (2023). PERSONAL DEVELOPMENT AS A SOCIAL-BIOLOGICAL PHENOMENON, AS AN OBJECT AND SUBJECT OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
16. Ravshanovna, X. S. (2023). Teachers by before school education organization in pupils passable training in the process to the children applied pedagogical communication styles classification. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(5), 237-243.
17. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH*, 1 (8), 131–139.
18. Ravshanovna, X. S. (2024). TA'LIMDA PEDAGOGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI. *PEDAGOG*, 7(5), 318-324.
19. Ravshanovna, X. S. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARINI TANLASHDA O 'QITUVCHINING MAHORATI. *PEDAGOG*, 7(4), 298-305.